



## O'ZBEK KOMPYUTER LINGVISTIKASINING SHAKLLANISHIGA DOIR INTEGRATSIYA JARAYONIDA ILMIY TADQIQOTLAR USLUBI

Tolipov Izatullabek Abdulhoy o'g'li

*Termiz davlat universiteti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi, ilmiy raxbar*

Abramatova Mohichehra Abdurazzoq qizi

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs 220- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hozirgi vaqtda jahon miqyosida kechayotgan integratsiya jarayonida tabiiy til asosidagi axborot uslubini yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Kompyuter lingvistikasi yangi yo'nalish bo'lishiga qaramay bu soha ustida bir qancha ishlar amalga oshirilgan, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** *Axborot texnologiyalar, kompyuter lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi, matematik lingvistika, kvantitativ lingvistika, psixolingvistika, geografik tilshunoslik.*

Mavzuning dolzarbligi. Global taraqqiyotning muhim xususiyatlari sohalarga texnikaning kirib kelishi, kompyuter dasturlarining shakllanishi, integratsiya jarayoni bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida kechayotgan integratsiya jarayonida tabiiy til asosidagi axborot uslubini yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bugungi kunda o'zbek tilining mavqeyini yuksaltirish, nufuzli tillar qatoriga olib chiqish muhim zarurlardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari ta'lim sohasida ham asosiy o'rin egallaydi. Ta'lim samaradorligini oshirishda, zamon talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashda axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda yurtimizda ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratilishi natijasida aksariyat yoshlar axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmoqdalar, axborotlashtirish jarayonida mustaqil ishtirok etmoqdalar. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2012 yil 16 aprelda e'lon qilingan PQ-1740-son qarori ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'Mishga zamin yaratadi.

Kompyuter lingvistikasi mana shu zaruratni amalga oshirish uchun yaratilgan qulay imkoniyatlardan biridir. O'zbek tilini jahon miqyosiga olib chiqish, dunyoviy tillar sirasiga kiritish va til o'rganish va o'rgatishda kompyuter lingvistikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda dunyoda barcha sohalar, yo'nalishlar rivojlanib bormoqda. Shu jumladan kompyuter texnologiyalari ham tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Kompyuter texnologiyalari rivojlangani sari kompyuterga bo'lgan talab ham kundan-kunga oshmoqda. Ma'lumki, tilshunoslik fani XIX (1816-yilda) asrda mustaqil fan sifatida shakllandi.



Shundan boshlab u turli aspektlarda, yo'nalishlarda rivojlanib kelmoqda. Keyingi yillarda barcha fanlardagi kabi tilshunoslikda ham ikki fanning "chorrahasida" (kesishuvida) yuzaga kelgan fanlar jadal rivojlanmoqda. Jumladan, ana shunday fanlar sirasiga sotsiolingvistika (sotsiologiya va tilshunoslik), psixolingvistika (psixologiya va tilshunoslik), etnolingvistika (etnografiya va lingvistika), neyrolingvistika (nevrologiya va tilshunoslik), matematik lingvistika va kompyuter lingvistikasi fanlarini kiritish mumkin. Insonning kompyuterga nisbatan qaramlik holatining shakllanib borayotgani bugun jahon miqyosidagi muammo ekanligi sir emas. Bu dastyorning quliga aylanib qolish insonning ruhi va ruh ifodasi bo'lgan tilida ham aks etayotganini ijtimoiy saytlarda ko'rish mumkin.

Hozirda biz kuzatayotgan kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlarda bu narsa kompyuter lingvistikasi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar sirasiga kirmasada, yaqin kelajak psixolingvistika va kompyuter lingvistikasi yo'nalishlarining kesishmasida turuvchi asosiy masala sifatida aynan shu muammoni qo'yilishiga shubha yo'q. Hozirda ham kompyuter lingvistikasi fani oldida jamiyatimizni yangi ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarga ko'tarishda zarur bo'lgan vazifalar anchagina. Kompyuter lingvistikasi yangi soha bo'lishiga qaramay, ancha tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Tilshunoslikda bir qator yangi sohalar paydo bo'ldi. Bu jarayon asosan, XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa-da, o'zbek tilshunosligida ushbu sohalar (neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, geografik tilshunoslik kabi) rivoji mustaqillik davridan so'ng kirib kela boshladi va bir qancha ilmiy ishlarning tadqiqot obyektiga aylana boshladi. Shu jumladan, "XXI asr – kompyuter texnologiyalari asri" ning o'zbek tilshunosligiga olib kirgan yangiligi bo'lmish kompyuter lingvistikasi sohasining rivoji ham.

Kompyuter lingvistikasi fani 1960-yilda AQShda shakllandi. Mazkur fan XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan matematik lingvistika fani asoslaridan kelib chiqqan. Tabiiy tillar grammatikasi formal modeli kompyuterda tarjima qilish, tillarga o'rgatish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos bo'lgani holda kompyuter lingvistikasi yo'nalishiga zamin yaratdi. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni hal qilishning kompyuter dasturini yaratishdir. Uning asosiy vazifalariga tillarga o'qitish, bilimlarni tekshirish, matnlarni turli jihatdan tahrirlash va mashina tarjimasini uchun mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish kabilar kiradi.

Kompyuterdan foydalanilgan holda ko'plab chastotali lug'atlar yaratilgan, ular o'z navbatida mashina tarjimasini uchun zamin bo'ldi. Ko'rinadiki, rus kompyuter lingvistikasidagi mazkur to'rt yo'nalishning rivojlanishi rus tilining dunyoviy tillar sirasiga kirishi, ommalashuvi, uni o'rganish va o'rgatish jarayonining optimallasuvi uchun asos bo'lgan. Bunda shubhasiz, kompyuterchidasturchilar bilan bir qatorda tilshunoslar ham muhim rol o'ynadilar. Ayniqsa, prof. R.G.Piotrovskiyning izlanishlari o'zining serqirraligi, har to'rt yo'nalishni o'zida qamrab olganligi, obyektivligi, aniq va izchilligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Olim nafaqat rus tilshunosligida, balki o'zbek, qozoq, qirg'iz va boshqa tilshunosliklarda ham injenerlik lingvistikasining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Ushbu yo'nalishni rivojlantirish maqsadida dunyodagi ko'plab davlatlarda



ilmiy tadqiqot laboratoriyalari va markazlari ochilmoqda, u yerda professorlar, kompyuter mutaxassislari va tilshunos olimlar ish olib bormoqda. Kompyuter lingvistikasi yangi yo'nalish hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasini yanada rivojlantirilsa, bu yo'nalish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirilsa va kadrlar tayyorlansa, kelajakda keng ko'lamli sohaga aylanadi va uning negizida bir qator yo'nalish va sohalar yuzaga keladi.

#### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saodat Muhamedova "Kompyuter lingvistikasi" o'quv qo'llanma, Toshkent – 2007-yil. – B. 54
2. Po'latov A.K., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi o'quv qo'llanma – Toshkent – 2007-yil – B. 98
3. Abduraxmonov X., Rafiev A., Shodmonqulova D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi.–Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.–Toshkent:Fan,2007.–B.165-173.
5. Ikromova H.Z. Inson-kompyuter-kelajak. –Toshkent: O'zbekiston, 1991. – B. 8-24.